

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ESTETIK TARBIYALASHDA ESTETIK TARBIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti „San'atshunoslik“
kafedrasi katta o'qituvchisi
Ruziyeva Orzigul Ilyosovna
Musiqiy ta'lim yo'nalishi talabasi
Jalilova Asilabonu

Annatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida estetik tarbiyaning mazmun mohiyati ochi berilgan. Musiqa san'ati shunday san'at turi ekanligi, u insonlarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtirishini anglatadi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg'otishining o'zini bir mo'jiza deb, atash mumkinligi aytib o'tilgan.

Kalit so'z: Musiqa, san'at, bilim, malaka, ko'nikma, texnologiya, termin, estetika did, qobiliyat.

Аннотация: В данной статье представлена сущность эстетического воспитания в дошкольных образовательных организациях. То, что музыка является таким видом искусства, означает, что она объединяет людей через их переживания и эмоциональные чувства. Это становится средством общения между ними. Говорят, что тот факт, что музыка, созданная одним композитором, может вызывать разные эмоции в сердцах других людей, сам по себе можно назвать чудом.

Ключевые слова: Музыка, искусство, знание, умение, технология, термин, эстетика, вкус, умение.

Abstract: This article presents the essence of aesthetic education in preschool educational organizations. The fact that music is such an art form that unites people through their experiences and emotional feelings means that it becomes a means of communication between them. It is said that the fact that music created by one composer evokes various experiences in the hearts of other people can be called a miracle.

Keywords: Music, art, knowledge, skills, abilities, technology, term, aesthetics, taste, ability.

Musiqa insonga o'z his-tuyg'ularini ifodalashga, boshqalar bilan bog'lanishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda bolalarning psixikasiga ham musiqaning o'rnini katta Musiqaning shifobaxsh xususiyatlari ham bor. Masalan, bemorlar kayfiyatini ko'tarish, emotsional holatini me'yorlashtirish, nerv tizimini mustahkamlashda undan

foydalanashiadi. Musiqa ayniqsa autizmga chalingan, ya'ni aloqa va muomala qobiliyati cheklangan bolalar uchun foydali.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va xalqqa murojatnomasida barcha sohalar qatori o'quv tarbiya ishlari istiqboli belgilanib, yoshlarning san'at va madaniyat sohalariga ijodiy fikrlash tog'risida fikrlar bildirildi.

"Bu borada ,avvalambor yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha baronar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q", -degan edilar davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Jamiyatda madaniyat va san'at sohalarini yanada rivojlantirish, estetik tarbiyani pedagogik mohiyatini yanada oshirish uchun faoliya ko'rsatayotgan olimlar faol o'qituvchi-pedagoglar darajasi kasbiy sifati bilan belgilanib kelmoqda.

"Estetik tarbiya "tushunchasi Musiqa o'qitish metodikasi fanida keng o'rin egallaydi. Falsafa faniga oid adabyotlarda ta'riflanishicha "Estetika"(yunoncha-his qiluvchi hissiy tarbiyaga doir)-inson bilan olam o'rtasidagi qadriyatlar munosabati hamda badiiy faoliyatni o'rganuvchi fan. Estetika faninnig tadqiqot ob'ektlari ichida san'at o'ziga xos o'rin egallaydi.

Musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omillaridan bo'lib, u inson ma'naviy dunyosiga katta tasir o'tkazadi. Musiqa tarbiyasi orqali bolalar nafaqat didaktik bilimlarni, estetik ko'nikmalarni ham o'zlashtiradilar. Ijodkorlik- insonning yangi g'oyalarni yaratishdir. Ijodkorlik psixika uchun yaxshi. Art-terapiya tinchlantiradi, stress va qo'rquv yo'qotadi salbiy his tuyg'ulardan chalg'itadi. Biz bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlardan iborat nazorat ro'yxatini bolalar tasavvurini ilhomlantirgan holda o'tkazishimiz mumkin.

- Har kun hayol qilish
- Atrofdagi dunyoni kuzatish
- Ijodkorlik
- Natija

Har kun hayol qilish- bunda bola tevarak atrofidagi hayolan ijodkorlikni o'z tasavvuri orqali yaratadi. Atrofdagi dunyoni kuzatish-bolaning ko'ziga ko'ringan yaxhi narsalarni anglashdan dalolat beradi. Ijodkorlik-ijodiy fikrlanishni o'rganish Natija- bunda bola hamma tasavvurlarini bir joyga jamlagan holda natija qiladi va bundan o'zi mamnun bo'ladi.

Bolalar bog'chasidagi asosiy vositalar quyidagilar:

- bolalarni o'rab turgan muhit, turmush estetikasi

- tevarak atrofda olingan taassurotlar
 - tabiat san'at asarlari
 - bolalarning tasviriyl faoliyatlari
 - bayramlar ,ko'ngil ochar tadbirlar
 - ma'lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta'llim
- Musiqada darslarida bolalarda quyidagi estetik sifatlar rivojlanib boradi:
- His tuyg'uni shakllantirish
 - Go'zallikni anglash
 - Ijodkorlikni rivojlantirish
 - ma'naviy boyligini oshirish va bolada mehr-muhabbat uyg'otishdir

Bolaning musiqaviy asarlarini idrok etish to'g'risidagi masalaga to'xtaymiz.

Idrok san'ati psixologik faoliyatni namoyon qiladi va intellektual bilish emotsional momentlarni birlashtiradi. Musiqani idrok etish ilk yoshdan shakllanadi. Birlashgan emotsional musiqaviy tasvurotlar bolani o'z-o'zidan qo'shiq aytishga musiqada asboblarni chalishga olib keladi. Musiqada asarlarini taxlil qilish orqali bola musiqani o'ziga xos tilini ajrata boshlaydi. Hozirgi kun talabi maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga musiqiy estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo'yadi:

- bolalarni tabiat go'zalliklarini badiiy asarlarini idrok etish
- estetik did va hissiyotni shakllantirish
- hayotda go'zallik tushunchasini to'liqligicha anglashni o'rgatish
- bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish
- bolalarga go'zallikni o'z hayotlariga, o'z faoliyatlariga olib kirishni o'rgatish

Estetik tarbiya natijasida o'z-o'zidan etika tushunchasi ham vujudga keladi. Etika qadimgi yunoncha "axloq falsafasi" shaxs yoki jamiyat odatlarini axloq normalarini o'rganuvchi hamda belgilovchi falsafiy tadqiqotdir. Etikaning quyidagi mezoniy tushunchalari bor: faxilat va illat, yaxshilik va yomonlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, adolat -burch, vijdon hayotning ma'nosi va boshqalar. Etika bolalarni ezgulikka chorlaydi. Etikaga doir dastlabki tushunchalar shumerlikning "Me" qonunlar majmuasida uchraydi. Undagi "namlul" tushunchasi insonparvarlik, ezgulik ma'nolarini anglatga

Kishida musiqada tinglash madaniyati yoshligidan rivojlana boshlaydi. MTTda amalga oshiriladigan musiqada tinglash esa uning poydevoridir. Zotan bola musiqada mashg'ulotlarining barcha elementlari jarayonida ham musiqada tinglab, uni idrok etadi. Ammo mashg'ulotning musiqada tinglash qismi oldida o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo shuni eslatish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko'ra tinglash imkoniyati ancha keng bo'ladi. Masalan: orkestr, xor, yakka cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab, idrok etish mumkin, xolos. Shuning uchun olimlar musiqaviy tarbiya jarayonida musiqada tinglashga alohida e'tibor qaratishadi. Chunki kishi musiqada madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqada tinglash

malaka, ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Musiqa tinglashda bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi: bolalarni o'z idrokiga mos xalq klassik va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirib borish

-bolalarning musiqani idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirib borish;

-bolalar maktabgacha tarbiya davrida MTTga qatnab, u yerdagi musiqa mashg'ulotlarida dastlabki musiqaviy malakalarni hosil qiladilar. Ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyatlar.

1. O. I. Ruziyeva „Bolalarning musiqiy ta'limi” O'quv qo'llanma. Qarshi. „Intelekt” nashriyoti 2023 .
2. Muhiddin Abdullayev, Husniddin Tursunov „Maktab repertuari “ O'quv qo'llanma Qarshi „Nasaf” NMIU 2022.
3. Muhiddin Abdullayev „Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi” „Nasaf” NMIU 2024
4. Sharipova G. Xodjayeva Z. “Musiqa o'qitish metodikasi”. Darslik Toshkent „NIF MISH” 2020.
5. G.M. Sharipova, G.T. Tojiyeva . Musiqa metodikasi O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2012.